



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR VA UNING UKALARI BILAN MUNOSABATI

Komolov Mavlonbek Zafarjon o'g'li¹

Tarix fakulteti (mamlakatlar va mintaqalar) yo'nalishi
2-bosqich talabasi

Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li²

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7769016>

ARTICLE INFO

Received: 18th March 2023

Accepted: 24th March 2023

Online: 25th March 2023

KEY WORDS

Zahiriddin Muhammad Bobur, Jahongir Mirzo, Nosir Mirzo "Boburnoma", Andijon, Kobul.

ABSTRACT

Buyuk shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ko'plab asarlar, maqolalar chop etilgan ammo Boburning ukalari bilan munosabati to'g'risida esa u qadar ko'p o'rganilmadi va shuning natijasida ular o'rtasidagi munosabatlar mavhumligicha qoldi. Ushbu maqola ayni Mirzo Boburning ukalari bilan bo'lgan munosabati haqida so'z yuritiladi.

Mirzo Bobur va ukalari haqida qisqacha ma'lumot keltirib o'tsak. Albatta bu o'rinda birinchi navbatda biz Z.M.Boburning memuar "Boburnoma" asaridagi ma'lumotlarni keltiramiz. Bobur o'zi va ukalari haqida quyidagicha yod oladi. "... Mirzodan 3 o'g'il, 5 qiz qoldi. Bari og'lonlardan kattasi men Zahiriddin Muhammad Boburman. Mening onam Qutlug' Nigorxonim. Yana bir o'g'li Jahongir Mirzo mendan ikki yosh kichik edi. Uning onasi Fotima sulton mo'g'ulning beklaridan birining qizi edi. Yana bir o'g'li Nosir Mirzo bo'lib, uning onasi andijonlik Umid ismli g'unchachi edi, u mendan 4 yosh kichik edi"¹ deb ta'riflaydi. Bundan biz shuni bilamizki Bobur 1483-yilda tug'ilgan, Jahongir Mirzo esa 1485-yil hamda Nosir Mirzo 1487-yilda tavallud topgan.

Bobur Mirzo 1494-yilda taxtga o'tirgan vaqtda, u poytaxt Axsida emas balki o'sha davrda ahamiyati va kattaligi jihatidan Movorounnahrda 3-o'rinda² bo'lgan Andijonda edi va ayni damda Andijonga Boburning amakisi Sulton Ahmad qo'mondonligidagi Samarqand qo'shini xavf solayotgan edi. Poytaxt Axsida esa bu paytda Jahongir Mirzo va Nosir Mirzolar bor edi biroq ularga shimol Toshkentdan Boburning tog'asi Chig'atoyzoda Toshkent xoni Sulton Mahmudxon xavf solayotgan edi. Bunday qaltis vaziyatda Bobur rasmiy poytaxtda emas balki Andijonda bo'lgani vaziyatni yanada murakkablashtiradi chunki ayrim beklar voqelikdan foydalanib rasmiy hokimiyatni Jahongir Mirzoga topshirishlari hamda bu orqali regentlikni qo'lga olishga harakat qilishi mumkin edi ammo 10 yoshli Jahongir Mirzo va uning yonidagilar bunday qaltis siyosiy o'yindan o'zini qaytardilar. Umarshayx Mirzoning tajribali va faol tashkilotchi beklaridan bir bo'lgan Xoja Mavlonoyi Qozi va Umarshays Mirzoning onasi Eson Davlatbeginning mohirona yuritgan siyosati sababli hokimiyat Mirzo Boburda qoladi.

¹ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 10-bet

² Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 3-bet



Aynan ularning faol harakati tufayli Andijon beklarining boshini bir yerga qovushtirishi Boburning hokimyatni qo'lida saqlab qolishiga imkon beradi. Tez orada Sulton Ahmad qo'shini Quvadagi ko'priktan o'tish paytida ko'priknining qulashi oqibatida katta talofat ko'radi, otlar orasida ham o'lat tarqaydi, bu esa urushni davom ettirishni qiyinlashtirgani sababli Bobur Mirzo bilan sulx tuziladi hamda sulxga ko'ra Bobur Sulton Ahmadning oliy hokimyatini tan oladi. Mamlakat shimolidagi Sulton Mahmudxon armiyasi esa faol harbiy operatsiyalarni davom ettirib, shu yildayoq Axxi shaxriga yaqinlashishga muvaffaq bo'ladi. Bu xaqida "Boburnoma"da quyidagicha ma'luot beriladi "Xo'jand suvi (Sirdaryo) ning shimol tomonidan kelayotgan Sulton Mahmudxon Axxini qamal qildi. Jahongir Mirzo o'sha yerda edi, beklardan Ali Darveshbek, Mirzoquli ko'kaldosh, Muhammad Boqirbek, Shayx Abdullo eshikog'a ham Axxida edilar. Vays Log'ariy, Mirg'iyos tog'oyi ham shu yerda edi. Ular beklardan xavfsirab, Vays Log'ariy viloyatiga, Kosonga ketdilar. Nosir Mirzoga Vays Log'ariy bekota edi. Shu sababli Nosir Mirzo Kosonda bo'lar edi. Xon Axxi atrofiga yetganda, bu beklar xon tomoniga o'tib, Kosonni berdilar. Mirg'iyos xon mulozamatida qolib, Vays Log'ariy Nosir mirzoni Sulton Ahmad mirzoga olib bordi. Unib Muhammad Mazid tarxonga topshirdi.

Sulton Mahmudxon Axxi yaqiniga kelib, bir necha marta urush qildi, biroq hech ish chiqara olmadi. Axxidagi beklar va yigitlar chinakam jon fidokorlik ko'rsatdilar. Shu payt xon xastalandi, urushga kirganiga pushaymonlar yeb, o'z viloyatiga qaytib ketdi."³ deyiladi. Bundan ko'rinadiki ayrim beklar bir-birlariga ishonmasalarda aka-ukalar o'rtasida siyosiy kurash Umarshayx Mirzo vafoti bilanoq boshlanmagan va bu esa bu vaqtda Boburning siyosiy pozitsiyasi mustahkam bo'lganini bildiradi. Shu o'rinda Nosir mirzoning bekatkasi yani otaligi tutgan yo'l tufayli yosh mirzo Sulton Ahmad oldiga borib qolgan biroq bu voqea u uchun ham salbiy oqibatlarga olib kelmagan chuni sulola vakilini o'ldirish Sulton Ahmad mavqeiga mos tushmas va o'zi sulx tuzgan tomon bilan qayta urushga kirishni istamas edi.

Jahongir mirzo 1494-yilda 10 yoshga kirganligini yuqorida takidlab o'tdik ammo shunga qaramay uning Axxi himoyasini tashkil etishda o'rni beqiyos zero qal'ani himoyasida uning bekotasi va boshqa beklar bo'lgan va buning barobarida shaxzoda akasining siyosiy hokimyatini tan olgan.

Tashqi xavf bartaraf etilgandan so'ng esa 1494-yilda Jahongir mirzo va uning onasi Andijonga azaga keladilar va barcha urf-odatlar bajarilgandan so'ng esa viloyatlarga noiblar tayinlanadi, shundan so'ng Jahongir mirzo ham Axxiga qaytadi. Boburnomada unga biror lavozim berilgani qayt etilmagan shundan malum bo'ladiki u yosh bo'lgani uchun unga boshqaruv ishlari berilmaydi ammo bu bo'lib o'tgan siyosiy ishlardan bizga shu ma'lum bo'ladiki Bobur va Jahongir mirzolar orasida siyosiy nizolar bu davrda bo'lmagan. Bunga balki Boburning mohir siyosatchi bo'lganligi hamda barcha qarindoshlariga bo'lgan mehribonligi, himmatliligi va kechirimliligi sabab bo'lgan bo'lsa ajab emas.

Kelgusi yilda Bobur mirzo amalga oshirgan kichik harbiy kampaniyalari davomida so'nggi harbiy mojaroda boy berilgan ayrim hududlarni qaytarib olgan va 1495-yilda Shoxruhiyani egallagan Mahmudxon bilan Shoxruhiyada ko'rishgan⁴. Shu orqali u bilan ham

³ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 20-bet

⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 35-bet



diplomatik munosabatlarni yo'lga qo'yadi. Siyosiy a'loqalarni yo'lga qo'yish vaqtida Bobur qon-qarindoshlik munosabatlarini unutmaydi va bu bilan huddi ulug' bobosi Amir Temur Ko'ragon yuritgan diplomatik siyosatdan namuna ko'rsatadi. Bobur harbiy yurishlarini olib borayotgan vaqtda ukasi Axsida qolar va akasi bilan siyosiy kurashga kirshmagan edi. 1496-yilda Bobur birinchi bor Samarqandni qamal qilib egallay olmaganda ham Jahongir mirzo akasiga qarshi isyon ko'tarmagan va buning barobarida Bobur ham ukasiga nisbatan adovat ruhida bo'lmagan. 1497-yilda 7 oylik qamaldan so'ng Samarqand Bobur qo'shini tomonidan egallanib aholiga harbiy rezerv hisobidan ijtimoiy yordam berilgan ammo bu Bobur ayonlari orasida siyosiy bo'linishga ham sabab bo'ladi, shu sababli ular Boburdan Andijonni Jahongir Mirzoga berishni so'rashadi. Bobur bu haqida quyidagicha yozadi "... el qochib u viloyatlarga borgan shunday bir paytda buyruq yo'sinda bu talab qo'yildi. Agar bu taklif burunroq oraga tushsa, balki o'rinni bo'lar edi."⁵ deydi. Bu esa Boburning faqatgina ayrim siyosiy sabablarga ko'ragina Andijonni ukasiga topshirmaganini ko'rsatadi, bundan tashqari Bobur ular talab qilgan hududlarni bersa uning siyosiy nufuzi ham pastlar edi va albatta bu uning tashqi va ichki siyosiy holatini yanada yomonlashtirar edi.

Andijonga 1498-yilda hujum qilinganda ham Jahongir mirzoni Uzun Hasan va Tanballar harbiy lagerga olib borishadi yani bu yerda shaxzodaga beklar bosim o'tkazganligi ko'riladi. Aks xolda Bobur 1499-1500-yillar davomida isyonchilarga qarshi olib brogan kurashlari davomida ukasini kechirmagan bo'lar edi. Albatta bu yarashda Eson Davlatbegim yani ularning buvilarining ham ro'li bor bo'lsada shaxzoda agar Jahongir Mirzo isyonchilarga to'la o'z istagi bilan qo'shilgan taqdirda unga ayrim jazolar qo'llanilar edi. Bundan tashqari 1501-yilda Samarqand Shayboniyxon tomonidan egallangandan so'ng Bobur Mirzo tog'alari bilan Andijonni mahalliy muxolifatdan qaytarib olishga urinib jang qiladi. Bu voqealar taxminan 1502-1503-yillarda bo'ladi. Bobur mirzo tog'alari Andijon shaxrini qamal qilayotgan vaqtda ozgina kuch bilan Axsini qamal qilishga urinadi va Umarshayx mirzo maqbarasiga Jahongir mirzoni ittifoq tuzish uchun chaqiradi.⁶ Sulton Ahmadning vakillari mirzolar bilan sulh tuzish uchun ular bilan uchrashishadi biroq Jahongir mirzoning askarlari mirzoning buyrug'idagi anglashilmovchilik sababli muholifat vakillariga hujum qiladilar oqibatda o'rtada yana harbiy harakatlar boshlanadi. Aka-ukalarning kam sonli qo'shini shaharni qamal qilishga urinadi biroq Sulton Ahmad boshchiligidagi muxolifat askarlari son jihatidan mirzolarning qo'shinidan ko'p edi va oqibatda ular qamalni yorib chiqishga muvaffaq bo'ladilar va shu sababli mag'lubiyatga uchragan aka-ukalar chekinadilar bu chekinish vaqtida Bobur mirzo asosiy qo'shindan ajralib qoladi va bir necha hafta o'tgandan so'ng sodiq askarlari tomonidan qutqariladi shundan so'ng Bobur Xuroson tomonga yo'lga chiqadi keyinroq Jahongir mirzo ham Boburga qo'shiladi. 1503-yilda Shayboniyxon Toshkent va Shoxruhiyani egallaydi hamda 1504-yilda Farg'onani ham egallaydi⁷.

⁵ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 56-57-betlar

⁶ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 116-bet

⁷ R. Shamsutdinov, H. Mo'minov "O'zbekiston tarixi" "Sharq" nashriyoti. 2013-yil 256-bet



Bobur mirzoga 1503-yilda Xusravshohning odamlari qo'shiladi biroq bu Boburning odamlari orasida siyosiy bo'linishni ham keltirib chiqaradi. Jumladan Xusravshohning beklaridan Yusuf Ayyub va Bahlul Ayyublar Jahongir mirzoni Xurosonga hijriy 909-yil yoki milodiy 1503-1504-yillarda olib ketadi biroq "Boburnoma" Xusravshohning o'zi kelib Boburga ta'zim qilgan vaqtda Jahongir mirzo ham Bobur oldida bo'lganini yozadi. Kobulning olinish paytida Jahongir va Nosir mirzolar Boburning qo'shini tarkibida bo'ladilar. Bobur Kobulga qilgan hujumi vaqtini shunday eslaydi "... Cholok sayxonligiga tushdik. Cholokda kengashib Kobul shahrini qamal qilishga kelishdik, so'ngra ko'chib, men o'zim qo'shinning markaz qismidagi barcha kishilar bilan Haydar Taqining bog'i va Qul

Boyazid oshpazning qabristoni oralig'iga tushdim. Jahongir mirzo o'ng qanot odami bilan bizning katta chorboqqa qo'ndi. Nosir mirzo chap qanot eli bilan Qutluqqadam qabristonining orqasidagi sayxonlikda to'xtadi."⁸ Ushbu ma'lumot bizga shuni beradiku 1504-yilda Jahongir mirzo va Nosir mirzolar akalarining harbiy yurishida o'z askarlari bilan ishtirok etadilar. 1504-yildagi ushbu harbiy harakatlar vaqtida Boburning ukalari qo'shinda muhim vazifalarni bajaradilar vaholanki shu yili Jahongir mirzo taxminan 19 yoshda va Nosir mirzo esa 17 yoshda edi. Bobur Kobulni egallashi bilan bu viloyatni idora etish ishlariga ukalarini ham darhol jalb etadi. Buni biz Boburdan mag'lub bo'lgan sobiq Kobul hukmdori Muqim va uning yaqinlarini daxlsiz chiqib ketishlarini nazoratini Jahongir va Nosir mirzolarga topshirgan edi.

1504-yil Kobul shaxri egallangandan so'ng Kobul atrofidagi hududlar ham Bobur mirzo qo'liga o'tadi va u bu hududlarni bir qismini boshqarishni ukalarining hizmati evaziga ularga topshiradi. Jahongir mirzoga G'azna va unin atrofidagi yerlarni bergan bo'lsa Nosir mirzoga esa Ningnahor tumanini, Mandinovar, Darayi Nur, Kunar, Nurgal va Jig'onsaroyini bergan⁹. Endilikda Boburning ukalari bu viloyatlarni boshqarishdan tashqari Bobur hozirgi Afg'oniston hududida olib borgan harbiy harakatlarda ham faol ishtirok etadilar. Nosir mirzo 1504-yillarda akasiga Sulton Mas'ud hazoraga qarshi kurashda yordam bergan. Jahongir mirzo 1504-yilda Ko'hatga qilingan yurishda o'ng qanot tarkibidagi qo'mondonlar ichida birinchilardan bo'lib tilga olinadi. Shu yili Boburga qarshi yana bir fitna yetila boshlaydi ushbu fitnani Jahongir mirzo fosh etadi. Jahongir mirzoga Boqi Chag'oniyoniy Boburdan hokimyatni tortib olishni taklif qiladi. Ushbu davrda Jahongir akasining siyosiy hokimyatiga qarshi bormaydi chunki Bobur uni Andijondan chiqqan vaqtlaridan boshlab doimo qo'llab-quvvatlab brogan shu bois u Boburga, unga qarshi isyon tayyorlanayotgani haqida habar beradi. Bobur mirzo esa boshqa fitnachilarni aniqlashni Jahongir mirzoning o'ziga topshiradi.

Bobur mirzoning yana bir qancha harbiy yurishlarga Jahongir mirzoni boshliq qilib qo'yadi ammo Nosir mirzo 1505-yilda Badaxshonga ketib qoladi. 1505-yilda Bobur va Jahongir mirzolar qo'shini Qalot qal'asini egallab Savosang va Olatog'ga yurish qiladilar va bu orqali chegaralarining xavfsizligini ta'minlashga harakat qiladilar ammo tez orada yana beklarning aralashuvi hamda Jahongirning mustaqil siyosat yuritish istagi tufayli, Jahongir

⁸ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 133-bet

⁹ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 153-bet



mirzo Bobur mirzodan ajrab ketib qoladi. Bunga esa Jahongir mirzo bilan Qosimbek o'rtasidagi kichik bir suxbatdagi anglashilmovchilik bahona bo'ladi.

Sulton Husayn Mirzo Bobur Mirzo va boshqa Temuriyzodalar bilan Shayboniyxonga qarshi birga kurashishga kelishib olgandi biroq Sulton Husayn mirzo 1506-yilda Bobur mirzo va boshqa shaxzodalar to'planishidan avval kutilmaganda vafot etadi¹⁰ va zaruriy bitim imzolanmay qoladi, oqibatda Shayboniyxon 1507-yilda Hirotning egallagan¹¹. Bobur mirzo Jahongir mirzoni so'nggi bor Hirotda ko'rgan bo'lishi mumkin chunki Bobur mirzo Jahongir mirzo bilan bundan keyin ko'rishgani haqida yozmagan. 1507-yilda esa Nosir mirzoning Badaxshondagi axvoli yomonlashadi va Badaxshon beklaridan Muhammad qo'rchi, Muborakshoh, Zubayr va Jahongir singari Badaxshon beklari mirzoga qarshi isyon ko'taradilar, Nosir mirzo Ko'kchi daryosining Yaftal va Rog' orasidagi joylardan askar yig'ib Hamchonning yaqiniga keladilar va shu yerda isyonchilardan mag'lubiyatga uchrab bir qancha dovon hamda yo'llardan o'tib Bobur oldiga qaytadi. Bobur ukasiga dastlab siyosiy boshpana beradi. Shu yilning o'zidayoq Nosir mirzo Boburning harbiy kompaniyalarida yana faol ishtirok etib Qalot qal'asini qayta egallashda jonbozlik qiladi. Bu hizmati evaziga Bobur Nosir mirzo ixtiyoriga Qandahor viloyatini beradi biroq 1507-1508-yillarda Shayboniyxon Qandahorni qamal qilib uni tashqi qismini egallaydi. Nosir mirzo esa bo'ynidan yaralanib G'aznaga boradi. Qandahorda qolgan beklar Shayboniyxon biln sulh tuzishga muvaffaq bo'ladilar ayni damda Nosir mirzoga Gazna viloyati beriladi. Bu voqealardan so'ng 1508-yilda Bobur o'ziga podshoh unvonini oladi¹².

1508-yilda Bobur Mirzo oilasida Humoyun Mirzo tavallud topadi¹³ ammo aftidan bu vaqtda Jahongir mirzo olamdan o'tgan ko'rinadi, negaki Bobur hijriy 914-yil voqealarini bayon etayotganda "Jahongir mirzo tirigida"¹⁴ deb eslaydi bu esa bu vaqtda mirzoning vafot etganiga ishora etadi, bu esa aftidan mirzoni yo'ldan urgan beklar uning boshini yeganidan dalolat bersa kerkak.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki Bobur juda ham murakkab bir siyosiy davrda hokimiyat tepasiga keladi hamda bu murakkab siyosiy voqelik uni ukalarini unga qarshi qo'yadi ammo shunga qaramay Bobur mohirona siyosat yurgizib ukalarini o'zining atrofida birlashtirishga harakat qiladi va qisman bu ishni uddalay oladi ammo Jahongir mirzoning Bobur qarorgohini tashlab ketishi uning o'limi bilan tugagan bo'lsa Nosir mirzo oxir oqibat aksining hokimiyatini to'la-to'kis tan oladi.

References:

1. R. Shamsutdinov, H. Mo'minov "O'zbekiston tarixi" "Sharq" nashriyoti. 2013-yil.
2. R. Shamsutdinov, X. Mo'minov, "O'zbekiston tarixi" "Akademnashr". 2019-yil

¹⁰ R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, S. Hoshimov, "Vatan tarixi" ikkinchi kitob, "Sharq" nashriyoti. 2020-yil 313-bet

¹¹ R. Shamsutdinov, X. Mo'minov, "O'zbekiston tarixi" "Akademnashr". 2019-yil 205-bet

¹² R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, S. Hoshimov, "Vatan tarixi" ikkinchi kitob, "Sharq" nashriyoti. 2020-yil 313-bet

¹³ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 231-bet

¹⁴ Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil 232-bet



3. Zahiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma" "Yangi kitob" nashriyoti. 2019-yil.
4. R. Shamsutdinov, Sh. Karimov, S. Hoshimov, "Vatan tarixi" ikkinchi kitob, "Sharq" nashriyoti. 2020-yil